



O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA TOPONIMLAR ORQALI MILLIY MAKON MODELLASHUVI

B.F.Xolmuxamedov

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

O‘zbekiston, Samarqand

S.B.Xursanqulov

Osiyo xalqaro universiteti magistranti,

O‘zbekiston, Buxoro

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida qo‘llanilgan toponimlar lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy matndagi joy nomlarining semantik yuklamasi, ularning milliy makon modelini shakllantirishdagi o‘rni hamda asar g‘oyaviy-estetik tizimidagi funksional ahamiyati aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, qissadagi toponimlar faqat makon ko‘rsatkichlari bo‘lib qolmay, balki xalq mentaliteti, ijtimoiy munosabatlar va kollektiv xotirani ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: toponim, badiiy makon, milliy makon modeli, lingvopoetika, o‘zbek nasri, ma’naviy qadriyatlar, badiiy uslub, axloqiy qadriyat, adabiy tahlil.

Annotation: This article offers a linguopoetic analysis of the toponyms used in “The Affairs of the World”, a novella by O‘tkir Hoshimov, one of the most prominent representatives of Uzbek literature. The study examines the semantic load of place names in the literary text, their role in shaping the national spatial model, and their functional significance within the ideological and aesthetic system of the work. The findings demonstrate that the toponyms in the novella function not merely



as indicators of physical space, but also as expressive artistic devices that embody the people's mentality, social relations, and collective memory.

Keywords: toponym, artistic space, national spatial model, linguopoetics, Uzbek prose, spiritual values, literary style, moral values, literary analysis.

Аннотация: В данной статье с лингвопоэтической точки зрения анализируются топонимы, использованные в повести «Дела мира» выдающегося представителя узбекской литературы О'ткира Хошимова. В исследовании рассматривается семантическая нагрузка географических названий в художественном тексте, их роль в формировании модели национального пространства, а также функциональная значимость в идейно-эстетической системе произведения. Результаты анализа показывают, что топонимы в повести выступают не только как указатели пространства, но и как важные художественные средства, отражающие народный менталитет, социальные отношения и коллективную память.

Ключевые слова: топоним, художественное пространство, модель национального пространства, лингвопоэтика, узбекская проза, духовные ценности, художественный стиль, нравственные ценности, литературный анализ.

Milliy makon modeli - Milliy makon modeli badiiy matnda toponimlar, makoniy obrazlar va fazoviy tasvirlar orqali muayyan millatga xos ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar hamda madaniy qadriyatlarning tizimli ifodalanishini ta'minlaydi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy makon muammosi muhim nazariy masalalardan biri sifatida qaraladi. Xususan, M. M. Baxtin badiiy makonni muallif dunyoqarashi va g'oyaviy-estetik konsepsiyani ifodalovchi asosiy unsurlardan biri sifatida talqin etadi [1, 234-b.]. Shu bois badiiy asarda makon nafaqat voqealar sodir bo'ladigan joy, balki milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.



O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy makon va toponimlar masalasi alohida tadqiq etilgan. M. Yo'ldoshev badiiy matnda makon birliklarining milliylikni ifodalashdagi o'rnini lingvopoetik jihatdan asoslab beradi [2, 128-b.]. Ushbu nazariy qarashlar O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini tahlil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Asarda qo'llanilgan toponimlar orqali milliy hayot manzaralari, xalq mentaliteti va ijtimoiy munosabatlar yuksak badiiy darajada aks ettirilgan bo'lib, bu holat qissaning g'oyaviy-estetik qiymatini yanada oshiradi [3, 72-b.].

Toponim tushunchasi va uning ilmiy ahamiyati - toponimika tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, u geografik obyektlarning nomlarini, ya'ni toponimlarni o'rganadi. "Toponim" atamasi yunoncha topos - "joy", onyma — "nom" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ma'lum bir hudud, joy, manzil yoki geografik obyekt nomini anglatadi. Daryo, ko'l, tog', cho'l, shahar, qishloq, mahalla, ko'cha kabi obyektlar nomlari toponimlar sirasiga kiradi.

Toponimlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, etnik tarkibi, turmush tarzi hamda tabiat bilan bog'liq qarashlarini aks ettiradi. Shu sababli toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, etnografiya va arxeologiya fanlari uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ko'plab toponimlar qadimiy so'zlar, unutilgan atamalar yoki tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lib, ular orqali ma'lum hududning o'tmishini tiklash mumkin. [4, 7-b.].

Toponim va badiiy makon masalasi - toponimlar onomastikaning muhim tarmog'i bo'lib, badiiy matnda estetik va semantik yuklama kasb etadi. Adabiy asarlarda toponimlar makonning aniqligini ta'minlash bilan birga, qahramonlar ruhiyati, ijtimoiy muhit va tarixiy xotirani yoritishga xizmat qiladi. Lingvopoetik yondashuvga ko'ra, toponimlar muallifning badiiy tafakkurini ifodalovchi konseptual birliklar sifatida qaraladi.



Toponimlar kelib chiqishiga ko‘ra turli omillarga asoslanadi. Urbononim-shaharlar yoki shahar ichidagi markaziy joy nomlari, Xoronim- viloyatlar, shaharlar, hudud nomlari, Godonim- ko‘cha, xiyobon, bulvar, bozor nomlari, Gidronim- daryo, kanal, buloq kabi suv obyektlari nomlari, Agaronim- maydon, bozor kabi savdo-sotiq joyi nomlari. [4, 25-b.].

Quyida “Dunyoning ishlari” qissasidagi toponimlarning ba’zi bir turlarini, ularning asardagi badiiy funksiyalarini asardan parchalar orqali birma-bir ko‘rib, tahlil qilib chiqamiz.

T/r	Toponim turi	Toponimlar	Asardan misollar	Badiiy funksiyasi
1.	Urbononimlar — shaharlar nomi	<i>Moskva</i>	— <i>Moskvada-chi?</i> — <i>Bor bo ‘lsa kerak.</i> — <i>Moskva eng katta shaharmi?</i> — <i>Eng katta shahar. [5, 16].</i>	Makonni aniqlash: voqea rivoji uchun hududiy aniqlik va makon yaratish, tarixiy va ijtimoiy fonni yaratish, asar haqqoniyligini oshirish.
2.	Xoronimlar — shaharlar, hudud nomlari	<i>Namangan</i>	— <i>Falonchi opanglar Namangandan kelishgan, bilasan-ku, — deydi kattalar. [5, 30].</i>	Harakat yo‘nalishi: qahramon safarlarini makon bilan ko‘rsatish; Mahalliy realizm: voqeaga haqiqat hissi berish.
		<i>Jizzax</i>	— <i>U kishi Jizzax tomonga ketibdi, hali qaytmabdi, — deyishadi. [5, 65].</i>	
		<i>Asaka</i>	— <i>Ertalab Asakaga borib kelaman, kechgacha yetib kelarman...[5, 205].</i>	
		<i>Kavkaz</i>	— <i>U paytlari Kavkazda xizmat qilganman, oson</i>	



			<i>kunlar emasdi, — deydi qariya. [5, 125].</i>	
3.	Godonimlar — ko‘cha, xiyobon, bulvar, bozor nomlari	<i>Do‘mbrobd</i>	<i>Men Do‘mbrobdga borib kelganimda, o‘sha tog‘ yonidagi qishloqni esladim... [5, 22].</i>	Psixologik holatni ifodalash, hududiy kelib chiqish va ijtimoiy aloqalarni ko‘rsatadi. Tarixiy fon va davr ruhini ochadi, ijtimoiy muhit va konflikt fonini yaratadi.
		<i>Beshyog‘och</i>	<i>Beshyog‘och tomonga borishimiz kerak, yo‘l uzoq, — dedi yoshlardan biri. [5, 38]</i>	
		<i>Beshqo‘rg‘on</i>	<i>Beshqo‘rg‘ondan kelgan odamlar bilan uchrashdik... [5, 52].</i>	
		<i>Leninobod</i>	<i>Leninobodda xizmat qilgan paytlarim eslashga arziydi, — dedi qariya. [5, 70].</i>	
		<i>Laylaktepa</i>	<i>Ertalab Laylaktepaga chiqib, ishlarni ko‘rib keldik... [5, 95].</i>	
		<i>Chilonzor</i>	<i>Chilonzorda yangi bino qurishgani haqida eshitdingmi? [5, 112].</i>	
		<i>Qozirobod</i>	<i>Qozirobodga borib, eski tanishlar bilan ko‘rishdik... [5, 133].</i>	
		<i>Jiydazor</i>	<i>Jiydazorga borib, kechki ovqatni birga yedik... [5, 171].</i>	
4.	Gidronimlar — daryo, kanal, buloq kabi suv	<i>Qonqus</i>	<i>— O‘zimizning Qonqusdan ham kattami? — Katta. ...</i>	Mahalliy landshaft va tabiiy muhitni tasvirlash: daryo tasviri orqali



	obyektlari nomlari		— <i>Yozda-chi, — deyman esimga tushib. — Vali Qonqusda oqib ketay degan. Akam olib chiqqan!</i> — <i>Baribir, — deydi oyim.</i> — <i>Qonqusniyam yaxshi ko'rgin.</i> — <i>Nega?</i> — <i>Nega deganda, Qonqus o'zimizning anhor. Undan o'zimiz suv ichamiz.</i> [5, 47].	qahramonlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi ko'rsatiladi.
5.	Agaronimlar — maydon, bozor kabi savdo-sotiq joyi nomlari	<i>Qizil Maydon</i>	<i>Qizil Maydonning oldidagi gastinisaga tushdik.</i> <i>Yonimizda bozor – qaymoq bozor bir tomonda, shirmoy bozor bir tomonda...</i> <i>Kabobpazlar ertalabdan urib jigar kabob sotadi...</i> <i>Ammo lekin somon bozorining mazasi yo'q ekan. Qoplari kichkina-kichkina</i> [5, 9].	Realistik fon yaratish: bozorlar va maydonlar orqali asarga haqiqiy shahar va qishloq hayoti qo'shiladi.

Bu toponimlar asarda voqealar joyini, xarakterlarning harakatlanish makonini va ijtimoiy-madaniy muhitni bilim darajasida tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, Qonqus topominik nomi voqea tarixiga bog'liq legendar ma'noga ega bo'lib, suv arig'i va unga qo'shilgan voqeani yodga soladi.

Qissada uchraydigan toponimlar asosan *mahalla, hovli, ko'cha, bozor* kabi an'anaviy o'zbek makonlari bilan bog'liq. Ushbu toponimlar ko'proq umumlashgan shaklda berilib, aniq geografik nomlardan ko'ra milliy muhitni ifodalashga xizmat qiladi. Bu holat asar makonini umumxalq darajasiga ko'tarib, undagi voqealarni har



bir o'zbek o'quvchisi uchun tanish va yaqin qiladi. Ayniqsa, mahalla toponimi qissada ijtimoiy birdamlik, axloqiy me'yorlar va insoniy munosabatlarning markazi sifatida tasvirlanadi. Bozor esa hayotning harakatdagi, tirik makoni bo'lib, xalqning turmush tarzi va ruhiyatini aks ettiradi.

Toponimlarning badiiy-estetik funksiyalari - qissadagi toponimlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- voqealarning hayotiyliigi va ishonchliligini ta'minlaydi;
- milliy kolorit va madaniy muhitni yaratadi;
- qahramonlar xarakteri va ruhiy holatini ochishga yordam beradi;
- badiiy makon va vaqt uyg'unligini ta'minlaydi.

O'tkir Hoshimov toponimlarni sun'iy tarzda emas, balki hayotiy zarurat asosida qo'llab, asarning tabiiy badiiy oqimini saqlab qoladi.

“Dunyoning ishlari” qissasida toponimlar orqali ifodalangan makon yozuvchining insonparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq. Kundalik hayot makonlari orqali muallif ona obrazi, mehr-oqibat va insoniy mas'uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ochib beradi. Shu jihatdan, toponimlar qissa g'oyaviy mazmunining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, “Dunyoning ishlari” qissasida qo'llanilgan toponimlar asarning badiiy va ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi muhim lingvopoetik vositalardandir. Ular orqali O'tkir Hoshimov milliy makon modelini yaratib, o'zbek xalqining hayot falsafasi va ruhiy olamini yuksak badiiy darajada ifodalagan. Mazkur tadqiqot o'zbek adabiyotida toponimika masalasini o'rganishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M. M. *Formy vremeni i hronotopa v romane.* — Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975. — 234 b.
2. Yoʻldoshev M. *Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili.* — Toshkent: Fan, 2007. — 128 b.
3. Karimov N. *Oʻtkir Hoshimov ijodiy olami.* — Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. — 72 b.
4. Qorayev, S. *Toponimika.* — Toshkent: Fan, 2006. — 320 b.
5. Oʻ.Hoshimov. *Dunyoning ishlari.* — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 336 b.

¹Xolmuxamedov Batiyor Farxodovich

¹*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, filologiya fanlari
doktori, dotsent*

²Xursanqulov Sunnatillo Baxtiyor oʻgʻli

²*Osiyo xalqaro universiteti magistranti, +998944420542*